



MAQSUD SHAYXZODA-KURSDOSHI XOTIRASIDA!

Yo'ldosheva Farangiz Sayfiddin qizi
Toshkent Davlat Transport Universiteti
Yurisprudensiya (xalqaro transport huquqi) 2-bosqich talabasi
yoldoshevafarangiz311@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri, Buyuk xizmatlari uchun ordeni sohibi Maqsud Shayxzodaning universitetda o'qib yurgan kezlari, u davrda qanday ustozlardan ta'lim-tarbiya olganligi haqida yaqin do'sti va kursdoshi tilidan ma'lumotlar berib o'tiladi.

Kalit so'zlar: mehr-muhabbat, sadoqat, ta'lim, o'qish, tajuub, talabalik.

ПАМЯТИ ОДНОКУРСНИКА МАКСУДА ШЕЙХЗАДЕ!

Юлдошева Фарангиз Сайфиддиновна
Ташкентская Область Транспортный Университет
Юриспруденция (международное транспортное право) студент 2 ступени
yoldoshivafarangiz311@gmail.com

Абстрактный. В данной статье народный поэт Узбекистана, кавалер ордена «Большие заслуги» Махсуд Шайхзода рассказывает о временах, когда он учился в университете, у каких преподавателей он получал образование в это время, на языке его близкий друг и однокурсник.

Ключевые слова: любовь, верность, образование, учеба, неожиданность, студенчество.

MAQSUD SHEIKHZADEH - IN MEMORY OF CLASSMATE!

Yoldosheva Farangiz Sayfiddin qizi
Tashkent State Transport University
Jurisprudence (international transport law) 2nd stage student
yoldoshevafarangiz311@gmail.com

Abstract. In this article, the people's poet of Uzbekistan, the holder of the Order of Great Merit, Maqsud Shaykhzoda, is told about the times he studied at the university, what kind of teachers he received education from during that time, from the language of his close friend and fellow student.



Key words: love, loyalty, education, study, surprise, studentship.

Talabalik-oltin davr deyishadi. U davrda bo'lmagan narsaning o'zi qolmaydi. Turli xil hazillar, kinoyalar, turli xil joylarga turli vaqtlarda uyushtirilgan ajoyib sayohatlar. Hammasi juda ajoyib. Bu paytda atrofingizda shunday baxtli kunlarni siz bilan birga yashayotgan kursdosh atalmish oliy xilqat egasini to hayot ekanmiz aslo yodimizdan chiqarmasak kerak.

“Shayxzoda aql ma'nosidagina emas, siymo ma'nosida ham hammamizdan ajralib turardi” Ozarboyjon va O'zbekiston xalqining suyukli farzandi Maqsud Shayxzoda nomini bugun shunday ta'riflaydi uning yaqin do'sti va kursdoshi Mirazkalon Ismoiliy. Maqsud Shayxzoda Ozarboyjon Respublikasida tug'ilgan bo'lsa-da uning risqini Yaratgan qardosh o'zbek xalqi bag'rida berdi. Shayxzoda 1928 yilda Toshkentga surgun qilingan. Boshlang'ich maktabni va Boku oliy pedagogika institutini tugatgach keyingi ta'limni Toshkentga davom ettirishga majbur bo'ladi. Bu yerdagi yaqin do'sti u kunlarni: “Men hurmatli Muxtor Avezovni 1928 yildan tanir edim. O'sha yili Maqsud Shayxzoda, Subutoy Dolimov, Viktor Reshetov, Nodirxon Nazarov, Sherbek Aliev, yana bir necha yigit va qizlar O'rta Osiyo Davlat universitetining sharq fakul'tetiga o'qishga kirdik. Ba'zilarimiz bilim yurtini, qolganlarimiz turli texnikumlarni bitirib kelgan hali g'o'r o'smirlar bo'lganimiz uchun aqli-hushi mukammal, hayot tajribasi boy biror murabbiyga ehtiyoj sezardik.

Biz orzu qilgan ana shunday murabbiy fakul'tetimizdan daf'atan topilib qoldi. Bir mahal bo'ylari barvasta, ikki beti naqsh olmadek qizil, ko'zlari xiyol qisiq, qozoqsifat o'rta yoshli bir kishi chehrasidan yog'ilib turgan mehr nuri bilan bizni o'ziga jalb qildi. Yoshlik marog'i qo'ymadimi yo qandaydir bir kuch bizni o'z sehriga oldimi, har holda u kishi bilan qiziqib qolib, uning kimligini surishtirishga tushdik. Lekin surishtirib ulgurmagan ham edikki, u kishining o'zi bizdan hol-ahvol so'rab kelib qoldi. Bizning oliy o'quv yurtiga kirganimiz, ilm ketidan tushganimiz bilan qutlab, ohangidan ona tilisi qozoq tili ekani shundoqqina sezilib turgan muloyim, shirin bir shevada o'zini bizga tanishtirdi. Bizni u kishining salobati bosib qolgani aniq edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, u bilan ochilib-yoyilib gaplasha olmadik. Biz bir gapirar, bir yerga qarar, bir qizarar, bir bo'zarar edik. Muxtor og'aning kattakon boshidagi xiyol oq oralagan tim qora sochlariga, ohori to'kilmagan oq ko'ylagi yoqasiga bejirim qilib bog'langan antiqa galstugiga, ingliz shevyotidan tikilgan xushbichim qora kostyumiga ko'zimiz tushdi deguncha nima uchundir o'zimizni yo'qotib qo'yardik. Lekin bu yotsirash uzoqqa bormadi. Muxtor



og'aning mehr oftobi bizni ilitib oldi. Biz endi u kishiga o'zimizning yaqin og'amiz, jigarimiz, eng muhimi, murabbiyimiz deb qaray boshladik" shunday xotirlaydi.

Darhaqiqat, inson bor ekan, u qaysidir sohada qandaydir muvaffaqiyat qozonmoqchi ekan unga albatta ustoz atalmish shamchiroq darkor. Benazir shoirimiz ham Muxtor og'ani o'zi uchun eng yaqin ustoz deb bilgan. Muxtor og'a ham yosh Maqsudda bor intiluvchanlik, izlanuvchanlik, og'irbosiqlik bilan har ishga mas'uliyat bilan yondoshishini ko'rib, undan kelajakda buyuk shaxs yetishib chiqishiga ishongan.

Kunlarning birida Muxtor og'a hammamiz bilan suhbatlashib turib, birdan Shayxzodaga tikilib qoldi. U kishi Maqsud bilan qaerdadir, qachondir ko'rishgan-u tasmollab ololmayotgandek edi.

— Men seni ko'rganmanmi-a, yigit? – dedi Muxtor og'a Maqsudga tikilib.

Maqsud noqulay ahvolga tushib qolgan kishidek g'alati bo'lib qoldi. Lekin uni har qanday mushkuldan ham qutqarib oladigan o'tkir zehni ish berdi: — Shu yerda ko'rgansiz, Muxtor og'a, shu yerda, — deb javob berdi u. — Ajab emas. Lekin sen bilan ko'p bor ko'rishgan, hatto so'zlashgan ko'rinaman.

Muxtor og'a o'z-o'zi bilan gaplashayotgan kishidek bir nimalar dedi-yu, yana Maqsudga tikildi. Bu safar u Shayxzodaning yuz chiziqlarini tekshirishga ahd qilgan kishiga o'xshab ketdi. Shunchalar qattiq tikildi. Keyin yuz-ko'zlarini yorishtirgan yoqimli bir jilmayish bilan:

— Qayerdansen, bovorim? – dedi.

Shayxzoda aql ma'nosidagina emas, siymo ma'nosida ham hammamizdan ajralib turardi. Muxtor og'aning beozor savoli unga erish tuyulmadi. Aksincha, hamma yerda, hamma vaqt, hamma muhit va sharoitda qalbini obod qilgan faxr tuyg'usini jo'shtirib yubordi. U suyunib, hatto faxrlanib, ozarbayjonlik ekanini, Ozarbayjondan kelganini aytdi. Shu so'zlarni aytib turganida Maqsudning yuziga xuddi osmondagi quyosh ko'chib tushgandek bo'ldi.

Ana shu tarzda kelajakning bu ikki buyugi o'rtasida yaqinlik ipi bog'landi.

Bu kichkina muloqot bizda, ayniqsa, menda umr bo'yi unutilmaydigan kuchli taasurot qoldirdi. Muxtor og'a u mahallar o'ttiz-qirq yoshlar o'rtasida bo'lsalar kerak. So'zlarni o'z o'rnida, muomalani joyida ishlatar, chuqur mulohaza va muhokamalari bilan odamni o'ziga rom qilib olardi. Qalblarimizni mehr-muhabbat gavharlari bilan to'ldirib ketgan ana o'sha qisqagina muloqotdan keyin Muxtor og'a bilan tez-tez ko'rishib turadigan, ko'rishganda ham eng qadrdon, eng mehribon og'a bilan ko'rishgandek quvonadigan bo'lib qoldik. Muxtor og'aning yuqorida xiyol



suzilib, xiyol jilmayib boqqan ko'zlarida bir olam saxovat, inson qadru qimmatini kaftdek ko'rsatib turgan mehru shafqat bor edi.¹

Albatta har kimga ham hayotda Muxtor og'adek dilga yaqin, suhbatdoshini qalban his qila oladigan odam uchrashi amrimahol. Ammo qahramonimiz Shayxzoda bu borada juda omadli deb aytolamiz.

Bir noxush voqea Muxtor og'ani ranjitgani hali-hamon esimda. Biz bilan bir vaqtda o'qishga kirgan talabalardan biri nima sabab bo'ldi-yu o'qishni tashlab ketib qoldi. Muxtor og'a buni eshitib, xuddi o'z o'g'li ketib qolgandek, qattiq ta'sirlandi. Bir necha kungacha ichidagi dardini yutolmay, qovoqlari ochilmay yurdi. U mahal fakul'tetimiz hozirgi Leningrad ko'chasida uch qavatli chiroyli g'ishtin binoda edi. Bir kun darsdan keyin yotog'imizga ketayotsak, ittifoqo Muxtor og'a uchrab qoldi. Yo'l-yo'lakay gaplashib ketdik. Lekin uning gaplarida malollik, dilida siyohlik bordek edi. Muxtor og'aning tabiatiga yot bu tundlik boisi tezda ma'lum bo'ldi. Gap aylanib kelib, o'sha o'qishini tashlab ketgan bolaga taqaldi.

— Chakki qilibdi! Juda yomon ish qilibdi, — dedi Muxtor og'a chuqur xo'rsinib.

Biz ham shu fikrda ekanimizni aytdik. U kishining o'ychan ko'zlarida sevinch uchquni chaqnadi. Bizni ham birin-ketin ketib qolishmasaydi, deb xavotirda ekan, haligi gapimizdan chehrasi ochildi.

O'qish, o'rganish, bilim olish mashaqqatlari bilan to'liq sertashvish kunlar ketidan kunlar, oylar ketidan oylar o'taverdi.

O'qishning ayni dolzarb kunlarida Maqsud Shayxzodaning tobi qochib qoldi. Betoblik oqibatida bir necha kun o'qishga kelmadi. Muxtor og'aning hamisha naqsh olmadek qizarib yuradigan ikki beti birdan oqarib ketdi. Bu, ichdagi tashvishning yuzga urgani edi. Ikkalamiz Oloy bozoriga o'tib, ho'l meva, sedanali obi non, yana allanimalar olib bordik. Muxtor og'a odamlar fazilatini maqtashdan zavq oladigan oliy himmat odam edi. Shu uchun yo'l bo'yi Shayxzodaning yaxshi sifat va fazilatlarini maqtab, ta'riflab bordi.

— Menga qara, Mirzakalon, qaysi bir kuni professorlar suhbatlashib o'tirib, Maqsud to'g'risida g'aroyib bir gapni aytib qolishdi. Ular ma'ruzalarini tugatib, savol bormi-yo'qligini so'rasha, Maqsud savollarini og'zaki bermay, daftarning bir, hatto ikki betini to'ldirib, yozma shaklda berarmish. Shu gap rostmi?

¹ <https://kh-davron.uz/kutubxona>



Rost edi. U hamisha savollarini og'zaki emas, yozma berardi. Men tasdiqladim. Muxtor og'a jumboq oldida turgan kishidek o'yga toldi. Hiyla o'ylanib turganidan keyin menga yuzlanib:

— Nimaga shunaqa qilar ekan, bilmadingmi? – deb so'radi.

— Bildim. O'zidan so'radim, — dedim men.

— Nima dedi?

— Dunyoda “ehtimol” degan so'z bor. Buni nazardan qochirib bo'lmaydi. Nazardan qochirdingmi, axir bir kuni pand beradi. Faraz qilaylik, domlamiz savolga darhol javob qilolmadi. Shunday bo'lishi mumkinmi? Mumkin, albatta. Shunda talabaniing savoliga javob qila olmagan domla izza bo'ladi. Men ana shunday “ehtimol”ning yuz berishi mumkinligi uchun savollarimni yozib beraman, dedi.

— Obbo, azamat-yey! – deb yubordi Muxtor og'a.

O'sha kezlarda Shayxzoda Qashg'ar mahalladagi eski bir uyda turardi. U Muxtor og'ani ko'rди-yu, xuddi dardiga malham topgandek o'rnidan dast turib ketdi. Istiqbolning bu ikki buyugi o'z tillarida, faqat o'zlari tushunadigan ikki qushdek, rosa chug'urlashdi. Gap, albatta, adabiyot, san'at, ilmu fan haqida bordi.²

Shayxzoda yashagan qisqa davrli umrida juda ulkan meros qoldira oldi. Bunday go'zal ijod uchun uning yonidagi haqiqiy do'stlari, ustozlari ilhomlantirgan bo'lsa ajab emas. Zalvorli umr egasining xotirasi har bir yosh avlod qalbida bahorda ochilgan chechak misol unaverishiga ishonamiz. Maqsud Shayxzodaga nasib etgan chin do'stlik saodati har kimga nasib etishini Yaratgandan so'rab qolamiz!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1. Maqsud Shayxzoda-zamondoshlari xotirasida. N.Karimov
2. <https://kh-davron.uz/kutubxona>
3. arxiv.uz
4. wikipedia.uz
5. jadid.media.uz

² <https://kh-davron.uz/kutubxona>